



## Jizzax viloyati statistika boshqarmasi


### 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida

# QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar - noyabr oylarida Jizzax viloyatida jami **1145,7 mlrd.** so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish surati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **104,0** foizni tashkil etdi.


Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat korxonalar tomonidan **39,9** mlrd.so‘m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,5** foizni hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **118,1** foizni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **58,1** foizi yoki **665,5 mlrd.so‘m** to‘g‘ri keldi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **108,0** foizni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **38,4** foiz yoki **440,3 mlrd.so‘m** to‘g‘ri keldi hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **97,2** foizni tashkil etdi.



**Jami qurilish ishlari 100%**

**2018 yilning yanvar-noyabr oylarida**  
**Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari**  
**(mlrd.so‘m)**




Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida 478,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Buning sababi Shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko‘p qavvatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish ijtimoiy soha va ko‘ngil ochish maskanlarini barpo etilayotganini takidlash mumkin.

Shu bilan bir qatorda qurilish ishlari yuqori sur‘atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bajarilgan qurilish ishlari 110,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bajarilgan qurilish ishlarining asosini namunaviy loyhalar asosida qurilayotgan uylar qurilishi tashkil qilmoqda.

## 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida

### Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan foizda)




Yirik pudrat korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi 3,0 foizni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining 58,1 foizini tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa 38,4 foizga qurilish ishlari

bajarildi. Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Forish tumaniga to'g'ri keldi - 76,4 foizni. Mazkur hududda norasmiy sektorning ulushi 17,4 foizni tashkil etdi.

## 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida

### Shahar va tumanlar qurilish ishlarining o‘rish sur‘atlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan foizda)




Qurilish ishlarining shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o‘rish sur‘ati Mirzacho‘l tumani hamda Forish tumanlarida kuzatildi.

Mirzacho‘l tumanida “Obod qishloq” dasuri bo‘yicha amalga oshirilayotgan qurilish ishlarining jadal borishi tufayli o‘rish sur‘ati o‘tgan yilning

mos davriga nisbatan 114,2 foiz bo‘lishi ta‘minlandi.

Forish tumanida yuqori o‘rish sur‘ati, yani 113,0 foiz kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha ob‘ektlari va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi**  
(jamiga nisbatan foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 78,5 foizni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 foiz punktga ko'paydi.

Fuqarolik ob'ektlari qurilishi hajmi joriy davrda 15,3 foizni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 foiz punktga kamaydi, mahsus qurilish ishlari hissasiga esa 6,2 foizga to'g'ri keldi